TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Special Issue Part 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

About this Special Issue

This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

G. A. Kurbonova	The Meaningful Life Journey of Sahibqiran Amir Temur Across the Ages	85
N. B. Kuvatova	The Educational Environment in Higher Education Systems: Theoretical Perspectives and Effectiveness	91
F. R. Khasanova	Implementing Virtual Tours and Intelligent Technologies in Museums of Uzbekistan: Challenges and Prospects	95
F. Muratova	Contemporary Requirements for Professional Practice in Psychology: Challenges and Strategies for Overcoming Them	98
D. Dj. Rashidova	The Role of Lifelong Learning in Human Capital Development	102
Y. Saburova	The Significance of the Third Renaissance in Societal Development	104
Sh. Kh. Buriyev	The Strategic Importance of Preserving Cultural Heritage in Societal Development: The Evolution of the Conservation, Restoration, and Preservation System for Museum Collections in Uzbekistan (1991–2025)	107
H. T. Usmonov	The Art of Calligraphy and Beautiful Handwriting	113
N. A. Yuldasheva *N. Tursunaliyeva* *S. Sh. Bekturdiev*	Digital Transformation in Primary Education: Contemporary Technologies and Future Development Prospects	116
S. V. Yuldashev *A. Sharafiddinov*	History Horse Breading in Ferghana Valley	120
M. Ch. Saidova	The Effectiveness of Peer Support Programs in Preventing Bullying in School Environments	124
Sh. Sh. Uzakov	Conceptual Foundations and Empirical Analysis of Poverty Reduction Through Improving the Entrepreneurial Environment	128

The Art of Calligraphy and Beautiful Handwriting

Usmonov Husan Toshtemirovich (Teacher)[1]
husanusmonovv95@gmail.com | ORCID: 0009-0000-0873-0073
[1.] Tashkent University of Economics and Technologies
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This article provides information about calligraphy, that is, the art of beautiful writing, various types of scripts, and their detailed characteristics. It also includes information about famous calligraphers of Central Asia as well as the Arab world. The article highlights how delicate and refined the art of calligraphy is and how it brings aesthetic pleasure to people. In addition, the scientific article discusses the historical origins of different script styles and explains the specific purposes for which each type of script has been used.
Keywords: calligrapher, the art of beautiful writing, calligraphy, naskh, kufic script, nastaliq, thuluth, tawqi, taaliq, diwani, ruqaah, Ibn Muqla, Mir Ali Tabrizi, Sultan Ali Mashhadi, Mir Ali Hiravi

Xattotlik, husnixat san’ati

Usmonov Husan Toshtemirovich (o‘qituvchi)[1]
husanusmonovv95@gmail.com | ORCID: 0009-0000-0873-0073
[1.] Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya.
Ushbu maqolada xattotlik, ya’ni husnixat san’ati, yozuv xat turlari, shuningdek ularning batafsil tafsilotlari hamda Markaziy Osiyodagi qolaversa arab olamidagi mashxur xattotlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Xattotlik, ya’ni husnixat san’atining naqadar mo‘jaz, nafis ekanligi hamda kishilarga estetik zavq bag‘ishlashi haqidagi ma’lumotlar ham izhor qilindi. Bundan tashqari ilmiy maqolada yozuv xat turlarining kelib chiqish tarixi hamda qaysi xat turi aynan qanday maqsadlarda foydalanganligi haqidagi ma’lumotlar ham o‘rin egallagan.
Kalit so‘zlar: xattot, husnixat san’ati, kalligrafiya, nasx, kufiy, nasta’lik, suls, tavqe, ta’liq, devoniy, riko, Ibn Muqla, Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xiraviy

Xattotlik (arab. — husnixat yozuvi), kalligrafiya — yozuv (xat) san’ati, kitob ko‘chirish hamda me’moriy inshootlar, badiiy buyumlarga aks ettrilgan lavhalar. Yozuvning paydo bo‘lishi natijasida yuzaga keldi. Ayniqsa, arab yozuvining keng tarqalishi tufayli Xattotlikning rivojlanishi jadallashdi. Sharqda, jumladan, O‘rta Osiyoda kitob bosish vujudga kelguniga qadar qo‘lyozma kitob tayyorlash, ularning nusxalarini ko‘paytirish (matn ko‘chirish) bilan xattotlar shug‘ullangan Xattotlar saroylarda, ayrim amaldorlar huzurida guruh bo‘lib ishlagan. Jumladan, Temuriy shahzoda Boysung‘ur Mirzo (1397—1433) Hirotda tashkil qilgan kutubxonada musavvir, naqqosh va boshqa ustalar bilan bir qatorda 40 dan ortiq xattotlar qo‘lyozma kitoblar tayyorlash, yaroqsiz holga kelganlarini ta’mirlash bilan mashg‘ul bo‘lgan. Xattotlik san’atiga bag‘ishlangan ko‘plab risolalar turli xil xat uslublari (nasx, kufiy, nasta’lik, suls, tavqe, ta’liq, devoniy, riko,) mavjudligi haqida darak beradi.

San’atkor xattotlarning yozgan xatlari ma’no ifodalashdan tashqari, kishilarni hayajonga solib, ularga estetik zavq beradi. Mahoratli kotib qalamida yozilgan har bir xat san’at mo‘jizasi kabi o‘lmas asar hisoblanadi. Muhammad ibn Husayn at-Tabiy, Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xiraviy, Munis Xorazmiy va Ahmad Donishlar shunday san’atkor kotiblar jumlasidandir. Shuni aytib o‘tish kerakki, Sharqda yozuvning juda ko‘p turlari mavjud bo‘lgan: kufiy, nasx,suls,nasta‘liq, riq‘o,rayhoniy va yana boshqalar. O‘zini xattot deb atagan kishi, umuman xattotlik qoidalaridan va yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xat turlaridan xabardor bo‘lishi va qoidaga muvofiq ravishda yoza bilishi shart bo‘lgan. Bu esa anchagina ilm, qobiliyat va diqqat talab qiladi . Husnixat ustasi — kotib kitobning eng asosiy ijrochisi va yaratuvchisidir. Buyurtma qilinayotgan kitob haqida barcha muzokara kotib bilan olib borilgan. U kitobning bor matnini ko‘chiribgina qolmay, uning tuzilishi bilan bog‘liq barcha unsurlarni rejalashtirgan. Bezak va miniatyuralar uchun ochiq joylar va sahifalar ajratgan. Umuman musavvir va lavvohning kitobni tayyorlashdagi ishlarini oldindan belgilab bergan. Kotib kitobning mazmuni va maqsadiga muvofiq u yoki bu xat xilini tanlagan. Sahifalar bo‘ylab ustunlar va qatorlar sonini belgilagan. She‘riyat matnlarini kitob betlarida badiiy did bilan joylashtirish kabi vazifalarni bajargan. Masalan, yirik hajmli she‘riy doston sahifada g‘azal, mustazod, musaddas va boshqa kichik janrlardan farqli joylashtirilgan (inv. № 2225) .

Ruboiy, tuyuq, chiston, fard kabilar ham har bir asarni ajratib ko‘rsatishga mo‘ljallab, bezaklar vositasida joylashtirilgan. Masnaviy, qasida, soqiynoma kabi poetik asarlar ham o‘ziga xos kompozitsiya talablariga muvofiq o‘rin topgan. Xattotlar Markaziy Osiyoda keng tarqalgan nasx, nasta‘liq va suls xat turlarini mukammal bilmog‘i shart hisoblangan. Nasx xatida odatda Qur’oni karim, hadislar yozilgan. Nasta’liq xati bilan ko‘proq badiiy adabiyot va tarixiy asarlar ko‘chirilgan. Suls xatidan esa ilmiy asarlarni ko‘chirishda, badiiy asarlar sarlavhalarini, fasl nomlarini, bob va ruknlarini ajratishda foydalanilgan. Bulardan tashqari xattotlar tomonidan nasriy qissalar, yilnoma kabi asarlarni ko‘chirish uchun rayhoniy xatiga murojaat etilgan. Ba’zan badiiy adabiy asarlar uchun shikasta, qonunchilik hujjatlari, farmon va buyruqlar uchun tavqe, kundalik ish yuritish yozishmalari va maktub-munshaot uchun riq‘o kabi xat turlaridan foydalanilgan. Badiiy yozuv taraqqiyotining tamoyili, avvalo, u yoki bu davr va uning nafosati hamda amaliy talablari bilan bog‘liqdir. Manbalarning

guvohlik berishicha, ming yildan ko‘proq davrda tadrijiy o‘sish yo‘lini bosib o‘tgan olti xat uslubi (nasx, suls, riq‘o, rayhoniy,tavqiy,muhaqqaq) asosida ularning turli-tuman uslubiy xillari yuzaga keldi.

Ma’qaliy xati kufiy xatigacha bo‘lgan qadimiy yozuvlardan bo‘lib, uning harflari butunlay tekis – yoyiq, tik chiziqlar bilan ifodalangan bo‘lib, hech bir harfida dumaloq shakl bo‘lmaganligi bilan kufiy hatidan ajralib turadi. Bu xatni “ma‘qaliy” deyilishiga sabab shuki, milodiy 623 da shu nom bilan ataluvchi ikkita shaxs yashagan – biri Makkada Ma‘qal ibn Sinon al-Asjiy, ikkinchisi Basrada Ma‘qal ibn Yasor al-Muzaniylarning biriga nisbat berilganligini bildiradi. Ammo mazkur xat uzoq iste’molda bo’lmagan, shuhrat qozona olmagan. VII asrdan boshlab uning o’rnini arab yozuvining eng qadimiysi va eng mashhuri xisoblangan xatti kufiy egallaydi .

Kufiy xati. Arablar fath qilingan yerlardagi devonlarni arablashtiruv va tartibga solishdan avval barcha musulmonlar uchun o’qishga oson bo‘lgan yozuvni tanlash ustida bosh qotiradilar. Oqibatda kufa ahli o‘rgangan xat turining aniq va chiroyliroq bo‘lgani sabab boshqa shaharlarda joriy xat turlaridan ko‘ra ushbu xat turini tanlaydilar. Shunday qilib, kufiy xati davlatning barcha nohiyalarida qo‘llaniladigan yozuv turiga aylanib qoldi. Bu xat nuqtalardan xoli bo‘lib, o‘zining soddaligi va bezaklardan xoliligi bilan ajralib turadi.

Bu yozuv turi geometrik shakllarga asoslangan bo‘lib, yozuvida faqat to‘g‘ri va doiraviy chiziqlar qo‘llanadi. Bu xat turidan asrlar davomida boshqa turli xil arab xatlari vujudga kelgan. Har asrning kufiy xati turlicha o‘zgarib, turli viloyatlarda uning turli xil shakli qo‘llanganligi hamda u ishlatilgan asr va mintaqaga qarab, unga turli nomlar berilgan (masalan, V asr kufiysi, VII asr kufiysi, mamluklar kufiysi, andalus kufiysi). Shu zaylda undan yetmishdan ortiq shu turdagi xat tarqaladi.

Kufiy xati deb nomlanishi haqida bir necha fikrlar bor:

a. Kufa shahrida ijod etilgani uchun Kufaga nisbati berilib «kufiy» deyilgan;

b. Zamonamiz olimlaridan Buxorolik mashhur xattot Abdulg‘ofir Razzoq Buxoriy esa bu haqda shunday deganlar: “Ikki dunyo saodati bo‘lmish Qur’oni karim ham mana shu xatda bitilgan.

Hazrati Usmon roziyallohu anhu boshchiligida Qur’on kitobat qilindi va bir necha nusxada ko‘chirtirildi. U zot Qur’onni mana shu asl nusxadan ko‘chirishni buyurdilar. Shulardan bir nusxasi Kufa shahriga yuborilgan. Keyinchalik Iroq, Xuroson, O’rta Osiyo xalqlari mana shu Kufa shahriga yuborilgan Qur’ondan nusxa ko’chirganlari uchun u “Kufiy Qur’on” va “Kufiy xati” deb atala boshladi va shunday qilib, “kufiy” atamasi xat olamiga kirib qoldi. Shuningdek, ummaviylar zamonida VII asr oxirida tangalar kufiy xatida zarb qilina boshladi. Keyinchalik kufiy xatiga nuqtalar, e’roblar (zamma, fatha, kasra) qo‘yildi. Tafsir, hadis, fiqh, aqoid, tarix ilmlarining shiddat bilan rivojlanishi xat yozishning ham tez, ravon va qulay bo’lishini taqozo qilar edi. Kufiy xati esa ancha murakkab bo‘lgani uchun zamon talablariga to‘la javob bera olmasdi. Ilohiy ilhom orqali kufiy xati asosida paydo bo’lgan arab xatining birinchi ixtirochisi bag‘dodlik Abu Ali ibn Muqla (vaf.338/950 y.) hisoblanadi. Ibn Muqla ma’qaliy (kufiy) xati asosida arab yozuvining yetti xil asosiy turini ixtiro etgan. Bu kishidan keyin Shayx Jamoliddin Yoqut Jazoiriy (277–397/891–1007 y.y.) (alayhi rahma val mag’fira) Ibn Muqla ta’limoti asosida muhaqqaq va mashhur olti xatni mukammallashtiradi. Shuningdek, u nasx xatining ixtirochilaridan biridir. Manbalarda qayd qilinishicha, Shayx Jamoliddin Yoqut Qur’oni karimni yoqut xatida forsiy tarjimasi bilan birga ming adad ko‘chirgan . Keyinchalik Ibn Bavvob (vaf. mil. 1022 y.) ham xat uslubining go‘zalligini mukammallashtiradi va 36 xat turidan 17 xilini ixtiro qiladi. Buyuk xattot Yoqut (XIII asr) va boshqa ulug‘ xattotlar arab yozuviga sayqal berib, ularning yanada mukammal, jozibador bo’lishiga o‘zlarining bebaho hissalarini qo’shganlar, xatdagi uslublarni oxiriga yetkazib, takomillashtirganlar”.

Arab xatining yana quyidagi turlari bor:

Devoniy xati. Usmoniylar davlati tugatilishi davrida sulton farmonlari va davlatning devonlaridagi hujjatlar va vasiqalar uchun ishlatiladigan maxsus xat turi yuzaga keladi va devoniy xati deb nomlanadi. Qalam yurgizishga, harflarining shakliga ko’ra ushbu xatdan ajralib chiqqan xat turi bo’lib, u jaliy devoniy (yoki gulli devoniy) deb ataladi. Agar devoniy xatida harflar orasidagi cho’ziqlar bo’sh qolsa, jaliy devoniyda ushbu bo’shliqlar bezak shakllar bilan to’ldiriladi.

Ijoza xati. Bu xat turi nisbatan kam ishlatilib, u rayhoniy xatining rivojlantirilgan formasi sanaladi. Undagi harflar xatti suls va xatti nasx harflarining qorishmasidan yasalgan. IX–X asrlarda ilk xattotlardan Ibrohim Sikiziy, Yusuf Sijistoniy, Ibn Bavvob va boshqa ustodlar o‘ttiz olti tur xatni ixtiro etishgan .

Turli tarixiy sharoit taqozosi bilan yaqin va O‘rta Sharq, Markaziy Osiyoda XIX asr oxiriga qadar yetmishga yaqin xat turlari bo‘lib, ularning barchasi mazkur olti mumtoz uslubga borib taqaladi. Yangi-yangi yozuv uslublarini yaratishda Turon, Ozarbayjon va Eronning turkiygo‘y va forsiygo‘y xattotlari barobar ishtirok etganlar. Shunday paydo bo‘lgan ta‘liq, nasta’liq, shikasta, majoriy, ijoza, devoniy, jali-devoniy, riq’o, qirma, siyog‘at kabi yozuvlar qadimiy mahalliy madaniyat ta’siri, yozuv madaniyati an’analari belgilariga boy bo‘lgan. Masalan, ta‘liq xati Eronning qadimgi va ilk o‘rta asr pahlaviy yozuviga yaqin va o‘rta asrlarda yaratilgan. XIV asrdan boshlab, Markaziy Osiyo va Xurosonda katta iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar ro‘y berdi, ayniqsa, Amir Temur saltanati barpo bo‘lishi munosabati bilan Markaziy Osiyo va Xuroson xalqlari madaniy hayotida ma’lum ko‘tarilish boshlandi. Yozma adabiyot, kitobat ishlari, bular bilan uzviy bog‘liq bo’lgan husnixat san’ati ham rivojlana boshlaydi.

Qur’on ko‘chirishda nasx, buyruq va farmonlar yozishda tavqe, maktublar bitishda riqo ishlatilgan. XV asrdan kitob ko‘chirish (fors, eski o‘zbek tillari)da nasta’liq xati bo‘lgan. Xattotlik Markaziy Osiyoda Temuriylar, Shayboniylar va so‘nggi sulolalar (ashtarxoniylar, mang‘itlar) davrida yuksak darajada taraqqiy etgan. Amir Temur davrida Mavlono Shamsuddin Munshiy, sangtarosh va xattot Oltun juda mashxur bo‘lgan. “Xattotlar sultoni” Sultonali Mashhadiy, Mir Ali Tabriziy va boshqa nasta’liq xatini san’at darajasiga ko‘targan. Temuriy shahzodalar (Ibrohim bin Shohruh, Boysung‘ur Mirzo, Badiuzzamon Mirzo va boshqalar) ham xattotlikka homiylik qilish bilan birga o‘zlari bu san’at turi bilan shug‘ullangan .

XX asrda yirik kutubxonalarda xattotlar qo‘lyozma kitoblar nusxasini ko‘paytirish bilan shugullandilar. Mas, Navoiy kutubxonasi (O‘zbekiston milliy kutubxonasi)da bir guruh xattotlar ishlagan. 1943-yilda O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti tashkil topgach, malakali xattotlar (Ibodulla Odilov, Abduqodir Murodov, Abdulla Nosirov, Usmon Karimov va boshqalar) shu yerga to‘plandi: ular ko‘hna qo‘lyozmalarni tiklash, ko‘chirish, tavsif varaqalari tuzish bilan shug‘ullana boshladilar. 20-asr 80-yillariga kelib kitobat san’ati bir guruh kishilar tomonidan qayta tiklandi. Bunda Habibulla Solih, Abdulla Mirsoatov, To‘xtamurod Zufarov, Alisher Shomuhammedov va boshqa ning xizmatlari katta. Jumladan, Habibulla Solih Mushafi Usmon Qur’onining asl nusxasidan pergamentga 3 marta nusxa ko‘chirib tayyorlagan (bir nusxasi Malayziyaning KualaLumpur shahrida; pergamentga ko‘chirib tayyorlagan yana bir nusxasi Toshkent islom universitetida), Katta Langar Qur’onidan (Sankt-

Peterburg va O‘zbekistondagi nusxalari asosida) teriga ko‘chirib nusxa tayyorlamoqda. Abdulaziz Mansurov, Islom Mamatov, Salimjon Badalboyev, G‘afurjon Haqberdiyev va boshqa bugungi kundagi eng mashhur xattotlardir. Xattotlik hozirgi kunda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston xalqaro islom universiteti, Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida o‘rgatiladi.

References

1. А.Муродов. Ўрта осиё хаттотлик санъати тарихидан. –Тошкент .: «фан», 1971. – 201 б.
2. Шарқ қўлёзмалари хазинаси. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. – Тошкент.: Бирлашган миллатларнинг таълим, фан ва маданият бўйича ташкилоти томонидан нашр этилган,2012. – 152 б.
3. Ал-Адварус сақофий лил мужтама ал-маданий мин ажли таъзизил ҳивар вис силм / Абдулазиз бин Усмон Тувайжирий таҳрири остида. – Работ: ISESCO, 2013.
4. Сурдель Д., Сурдель Ж. Цивилизация классического ислама / Пер. с фр. В. Бабинцева. Екатеринбург, 2006. – 536 с.
5. Грюнебаум, Густав Эдмунд фон. Основные черты арабо-мусульманской культуры : Статьи раз. лет. [Переводы] / Г. Э. фон Грюнебаум. - М. : Наука, 1981. - 227 с.